**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O’ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**
“ORKESTR CHOLG’ULARI”KAFEDRASI

**MIRZAYEV DILSHOD XASAN O’G’LI**

# KONTRABAS CHOLG’USIDA SHTRIXLAR USTIDA ISHLASH.

“5150700 – Cholg’u ijrochiligi” (Torli cholg’ular)yo’nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:
Ismoilov Sh.T.

**Toshkent-2017**

# Mundarija


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISH** | **3** |
| **IBOB.** | **Torli cholg'ular ijrochiligi haqida** | **9** |
| 1.1. | Torli cholg'ular ijrochiligida ijro va ifoda vositalari | 9 |
| 1.2. | Kontrabas cholg'usi tarixi va kelib shiqishi | 14 |
| **II BOB.** | **Kontrabas cholg'usida shtrixlar ustida ishlash** | **23** |
| 2.1. | Kontrabas cholg'usida pozitsiyalar va ular haqida malumot | 23 |
| 2.2. | Kontrabas cholg'usida shtrixlar ustida ishlash | 46 |
| | **Xulosa** | **52** |
| | **GLASSARIY** | **53** |
| | **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI** | **60** |

# KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.**O’zbek musiqa san’ati va madaniyati Sharq madaniyati uyg’unligida kop asrlik tarixiy yolni bosib otgan. Bugingi kunda yoshlarni milliy mafkuramiz ruhida tarbiyalash hamda san’at va badiyiy iod orqali ularning manaviy dunyosini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Musiyqiy ta’lim, tarbya nazariyasi xamda amaliyoti butun madaniyatimiz bilan chambarchas bog’liq. Insoniyat madaniyatining boshqa sohalarida bolganide, musiqa san’atida ham uning taraqqiyot bosqichlarini organish,o’zlashtirish jarayonida muhim hususiyatlar va qonuniyatlar yorqin namayon boladi. O’zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yolga qoyish,yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika yutuqlari bilan mumtazam tanishtirib borish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajak taqdirini manaviy jihatdan yetuk, irodasi baquvat, zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatga ega kadrlar hal etadi. Ilm-fan, madaniyat, ma’rifat har qanday mamlakatni yuksaklikga kotaradi, uning taraqiyotini taminlaydi, eng muhimi ilm-marifat insonni komillik sari yetaklaydi.Ta’lim tarbiyaga ahamiyat berish-bu kelajak haqida qayg’urish, yurt va xalq istiqbolini oylash demakdir.Shuning uchun ham mamlakatimiz raxbariyati mustaqillikning dastlabki yillaridan oq ta’lim tarbiyaga alohida ahamiyat berib milliy kadrlar tayorlashni zamon talablari darajasiga kotarish masalasiga jiddiy etibor bilan qarab, ”Ta’lim tog’risida” va “Kadrlar tayorlash milliy dasturi” Qonunlarini (1997 yil,29 avgust) qabul qildi. Respublikamizda ta’lim sohasiga davlat darajasida berilayotga etibor va bu soxada amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida talaba- oquvchilarning ta’lim va tarbiya olishlariga keng imkoniyatlar yaratib berilganligida namayon bolmoqda. 2012 yilning 16-17 fevral kunlari Toshkent shahrida bolib otgan “bilimli va aql-zakovatli yetuk avlodni tayorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiya qatnashshilari bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni etirof etkanliklari uning yaqqol dalilidir.

Mustaqil O’zbekistonimizda o’sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, jismonan sog’lom hamda aqlan yetuk, milliy va jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalaridan bahramant bo’lishi uchun misiqa ta’limini yanada rivojlantirish bo’yicha davlatimiz tomonidan turli dasturlar ishlab chiqarilib amalga oshirilmoqda.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida ”gi qonuni, “Kadrlar tayorlash milliy dasturi” talabalar asosida davlat tomonidan yangi talablar qo’yildi. Musiqa- yosh avlod tasavvurini kengaytirib, ularda ota-ona va Vatanga mehr uyg’otadi, badiiy va axloqiy tasavvurini shakllantirib, fikr doirasini kengaytiradi, milliy g’urur tarbiyasini o’zida mujassam etadi. Quvonch, kelajakga intilish a umid, ezgulik hislarini uyg’otadi. Kamolot va ma’rifatning yuksak choqqilari tomon boshlaydi hamda madaniyat sari etaklaydi, komil inson sifatida tarbiyalab boradi. Musiqa olamini cholg’ularsiz tasavvur etib bo’lmaydi.Colg’ular o’zining jozibasi, sirli tovushlar ohangi ila insonlarni o’ziga jalb etadi.

O’zbekiston Respublikasi prezidentining “ Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash boyicha 2009-2014 yillarga mo’ljallangan davlat dasturini tayorlash chora-tadbirlari to’g’risida” gi Vazirlar Maxkamasining Farmoyishi mamlakatimizda o’sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqasi madaniyatning yuksak namunalari asosida musiqiy ta’limni yanada rivojlantirish, kadrlar tayotlash tizimini takomillashtirish bo’yicha amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab berdi.

Yosh san’atkorlarni jahon musiqa maydonlari- xalqaro va respublika tanlovlari, festivallari, ilmiy- amaliy anjuman va konsertlarda ishtirok etishlari bu borada har tomonlama yetuk, raqobatdosh mutaqassis kadrlarni etishtirishga qaratilgan.

Bugungi kunda o’zbek musiqasida cholg’u musiqasi muhim o’rin egallaydi.Uning qaysi bir (cholg’u konserti, kamer cholg’u, vokal cholg’u) turida bo’lmasin musiqaga ehtiyoj kuchli. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikga

erishgach,musiqa olamida muhim o'zgarishlar roy berdi. Jumladan,milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, milliy ruhdagi asarlarni barpo etish yanada jadallashdi. Chunonchi, kontrabas ijrochiligi san'ati rivoji jarayonida mazmunan milliy musiqiy, uslubiy tamoyillar bilan boyitish, tinglovchilarni milliy ohanglar, an'analar va ko'p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008- yilda nashr ettirilgan **"Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch "** asarida o'zbek musiqa san'atiga va uning hozirgi kundagi dolzarb muommolariga to'xtalib o'tganlar. Buning isboti ularoq respublikamizda 175 dan ziyod bollar Musiqa va san'ati maktablari yangidan ta'mirlandi, 40 ta yangi zamonaviy o'quv- uslubiy qo'llanmalar bilan bo'yitilgan, moddiy texnik bazaga ega bo'lgan Bolalar musiqa va san'at maktablar qurib topshirildi.

Yosh avlodning musiqiy iste'dodi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida mamlakatimizning har bir shaxar va tumanida musiqa va san'at maktablarining faoliyat ko'rsatilishi nazarda tutilgan.

Hozirgi kunda bunda imkoniyatlar yaratilishi, birinchidan bolalar kuy-qoshiqqa oliy ta'lim muassasalarida bastakorlik,ijrochilik kabi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Ikkinchidan, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy,ahloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiradi. Ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. Uchinchidan, musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillikning birinchi yillaridanoq mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Ayniqsa ijrochilik san'ati merosimizni asrab abaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish ta'minlandi. Buning natijasida nufuzli musiqa ijrochilar tanlovlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.

Shu jihatdan ham bugungi kunda O'zbekistonda ijrochilik san'ati asosida o'quvchilarni estetik tarbiyalash usullari, vositalarini, estetik tarbiyaning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ochish zaruriyati alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki musiqa ijrochiligining kasbiy, professional janriga oid nazariy va amaliy bilimlarni, badiiy –musiqiy, estetik tafakkurni shakllantirishda, ma'naviy ahloqiy tarbiyalashda dolzarb muommolardan hisoblanadi.

San'at soxasida, jumladan bo'lajak cholg'u ijrochilari uchun amaliy ijrochilik saloqiyatlarni oshirish bilan bir qatorda o'z soxasining har tomonlama o'rganish, uning ilmiy- nazariy asoslarini tadqiq etish, puxta bilimlarni egallashga qodir bolishlari alohida ahamiyat kasb etadi.Bizning bitiruv malakaviy diplom ishimiz markazida Kontrabas cholg'usida shtrixlar ustida ishlash haqida yoritishga bag'ishlangan.

Kontrabas so'zi hususida so'z yuritar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash joizki, bu so'z butun dunyoda tan olingan. Biror bir orkestr jamoasi yo'q-ki, u so'z tarkibiga kirmagan bo'lsa. Hunki har bir inshoatni, har bir narsani zamini bo'lgani kabi orkestr jamoasining ham zamini kontrabaslardir. Kontrabaslari ko'p bo'lgan orkestrlarning ijrolari salobatli va qat'iydir. Shunday, ekan ana shu soz ijrochilarini tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi. Mutaxassis ijrochilar bu sozni o'rganish uchun darsliklar yaratishga harakat qilib kelmoqdalar. Kontrabas uchun yaratilgan biribchi darslik XVIII asrning o'rtalarida Fransiyalik Mishel Korret tomonidan yaratilgan. O'zi violonchelchi bo'lgani holda u kontrabas so'zini o'rganishga harakat qilgan. Shundan so'ng ayrim kompozitorlar aynan shu soz uchn konsertlar yozganlar. Jumladan V Pixl, K Vanxal, K Dittersdorf, V Motsart, I Gaydinlarni alohida takidlash zarur. Mana shunday kompozitorlarning bir-biridan chiroyli konsert asarlarini paydo bo'lishi kontrabas so'zining etuk ijrochilarini alqib chiqishiga turtki bo'ldi.

Ba'zan tadqiqot ob'ekti sifatida janrning turdosh hususuyatlari va ayrim masalalari diqqat markaziga tanlangan. Jumladan, "Konsertlik" va "konsert ijrochilik muammolari " ga o'z et'iborini rus musiqashunosi, olim B Asafev

zlanishlarini bag'ishlagan. Konsert janrining ko'plab masalalari hanuzgacha yoritilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishi maqsadi.** Cholgu ijrochiligida torli cholg'ular ijrochiligining o'ziga hos orni bor.Kontrabas cholg'usi uchun asarlarning o'ziga hosliklarini yoritib berish va ularni amaliyotda tadbiq etish asosiy maqsadimizdir. Bundan tashqari cholg'u ijroshiligi yonalishi boyisga taxsil olayotgan talabalarini torli cholg'ular uchun asarlarni nazariy bilim va konikmalarini hosil qilish ham maqsadlarimizdan hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishi vazifalari:** Yuzaga kelgan ushbu jarayon ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni, ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.Masalan, birgina torli cholg'ular uchun asarlarning taxlil va talqin etish uchun cholg'ularning ijro imkoniyatlari va hususiyatlarini bilib olish lozimligini unutmaslik kerak.Shuning uchun ushbu vositalardan samarali foydalanish, rivojlantirish, yosh iste'dodlarni tarbiyalab voyaga yetkazish asosiy vazifalarimizni tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:**Ta'lim muassasasalari musiqaga oid fanlar boyicha mashqulotlarning olib borilishida ustoz-oqituvchilarning zamonaviy sa'nat asarlaridan ijodiy foydalanish yollarini taxlil etish, milliy cholg'ularimizga zamon talablariga javob beradigan yangi asarlarni organish va ularni nazariy taxlil qilish hamda amaliy tadbiq etishdir.

**Tadqiqot ob'ekti.**O'zbekiston davlat konservatoriyasi "orkestr cholg'ulari" kafedrasi talabaliri hamda "Iqtidorli bolalar akademik litseyi" oquvchi- yoshlari.

**Tadqiqot predmeti.** Ta'lim muassasalarida talaba- yoshlar uchun musiqaga oid fanlar boyicha olib borilayotgan mashg'ulotlarda, talabalar bilan darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan tadbirlarda musiqa san'atining tasiri. O'zbekiston davlat konservatoriyasi "orkestr cholg'ulari" kafedrasi biiruvchilarini talim muassasalari uchun " iiqtisoslik" boyicha oqituvchilarni, ijrochilarni tayorlashda zamonaviy musiqa san'ati namunalaridan samarali foydalanish yollarini shuningdek, torli cholg'ularni nazariy jihatdan taxlil etish.

**Bitiruv malakaviy ish tarkibi.**Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob 4 paragirif,qulosa, glossariy hamda foydalanilgan adabiyotlar royqatidan iborat

# IBOB. TORLI CHOLG'ULAR IJROCHILIGI HAQIDA

## 1.1 Torli cholg'ular ijrochiligida ijro va ifoda vositalari.

Ijrochlik uslubiyatida " Ijro va ifoda vositalari" degan tushuncha mavjud bolib, ijro va ifoda bir-bir bilan chambarchas bog'liq bolsada ular, ijod jarayoninig turli tomonlarini aks ettiradi. Musiqiy ifoda vositalariga tovush hosil qilish va uning akustik asoslari, musiqiy tovush sozining tozaligi, tovush tusi, nola, usul, o'lchov, surat, agogika, artikuliyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

Musiqa cholg'u asbobi tovush manbalariga qarab guruhlarga, ijrochilik uslubi yoki ishlatilgan mexanizmiga qarab guruhchalarga , o'ziga xos qo'shimcha belgilariga qarab xillarga bo'linadi. Musiqa cholg'u asbobi asosan torli xordafonlar, puflab chalinadigan aerafonlar, teri qoplamali membranofonlar , tilchali gemidiofonlar, plastinkali , elektr va elektron musiqa cholg'ulari, aidofonlar guruhlarga bo'linadi. Torli cholg'u asboblarining guruhchalari: kamonli sozlar skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, o'zbek sozlaridan g'ijjak , qobiz, sato va boshqalar chertib chalinadigan sozlar arfa, gusli, sitra, gitara, do'mra, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, do'mbira urib chalinadigan turli sozlar chang, sambali klavishli chertib chalinadigan sozlar klavesin va uning turlari kiradi.

Torli cholg'u asboblarining guruhiga mansub kamonli sozlar skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola cholg'ularida ijrochi o'z ijro uslubini yaratishi uchun u, avvalo, cholg'uda dastlabki (pastanovka)sini to'g'ri va aniq qo'ya bilishi shart. Bunda ijrochiga mutaxasis ko'magi yordami zarurdir. Ijrochi kamonli torli cholg'uni ijro etishda chap qo'lida cholg'uni, o'ng qo'lida esa shu cholg'uga biriktirilgan maxsus kamonni tutishi lozim. Ijrochining bo'yi, qo'llarining uzunligiga qarab ijrochi qaysi o'lchamdagi cholg'u va unga biriktirilgan kamondan foydalanishi aniqlab beriladi. Cholg'uning turiga qarab kamon uzunligi va og'irligi belgilaniladi. Masalan: skripkada kamoni boshqa cholg'ular kamoniga qaraganda uzunroq va vengilroq, kantrabas kamoni esa nisbatan kaltaroq va og'irroq bo'ladi. Bunga sabab cholg'u torlarining qalin-ingichkaligidir. Cholg'uda sfatli tovush

chiqarish uchun chap qo'l aniqligi va o'ng qo'lning mohirligi zarurdir. Sifatli tovush hosil qilishda o'ng qo'lning bosimi, kamonni torlar ustida yurg'azganda mohirlik bilan almashtira olishi juda katta ahamiyat kasb etadi. O'ng va chap qo'l bir-biri bilan mutanosiblik bilan qilgan harakati aniq va toza tovush hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Shunga qaramay kamonli torli cholg'ularda tovushning sifati 20% chap, 80% o'ng qo'lga bog'liq.

Kamonnni to'g'ri ushlash uchun o'ng qo'lda: bosh barmoq domboqchasi bilan kamon bandi va dastagi tegib turadi. Qolgan barmoqlar bandning ustiga ketma-ket joylashadi. Bosh barmoq o'rta barmoq bilan qarama-qarshi bo'lishi lozim. Panja qillar tomon ozgina egilgan holatda bo'ladi. Ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bosh barmoq bilan birgalikda kamonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Nomsiz va jimjimaloq yordamchi vazifasida bo'ladi.

**Tovush hosil qilish.** Kamon ushlashni mashq qilgandan so'ng uni ochiq torda yurgizishga o'tiladi. Kamon torlarga gorizontal holda torning bir joyiga , ya'ni xarrak bilan dasta oralig'ida yugiziladi. Kamon ovoz sifatiga qarab dasta yoki xarrak tomonga ozroq egilishi kerak.Kamon uchi pastga yoki yuqoriga ortiqcha qiyalanmasdan harakatlanmog'i zarur.

Dastadan kamon uchigacha bo'lgan harakat bir me'yorda davom etishi lozim.Torga tushayotgan bosim kuchi kamonning barcha qismida birdek bo'lishi zarur.

**Tovush**–o'zi nima? Tovush fizik xodisa bo'lib, tarang tortilgan jism, (sim, yassi, plastinka va xokazo ) ning tashqi tasir natijasida mexanik xarakatga kelishi – tebranishi natijasida xosil boladigan jarayondir. Tabiatta qulog'imiz ilg'aydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularning hammasining ham musiqiy tovush deb bo'lmaydi. Musiqiy tovush o'zining 4 xossasi ya'ni, bir-biriga nisbatan baland pastligi tusi, davomiyligi ya'ni cho'zimi kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi. Tovush balandligi deganda inson qulog'I qabul qila oladigan tovushlar ko'zda tutiladi. Ularning eng pastki sekundiga 16 va balandligi 4200 tebranishi tovushlar bo'lib, undan past va yuqorisini odam qulog'I ilg'amaydi va maxsus apparatlar yordamida eshitish mumkin.

Tovushni ifodali, go'zal qiluvchi omillar 3 ta bo'lib, shulardan biri intonatsiyadir. Uning sofligiga erishish uchun avvalo sozandaning cholg'u asbobi sifatli ishlangan va chalinib, tajribadan o'tgan bo'lishi kerak bundan tashqari tovushning sof chiqishi ijrochining mahoratiga va kayfiyatiga ham bog'liq. Shuningdek cholg'udagi qo'shimcha aplekaturani qo'llash orqali ham tovushni past yoki balandiligini muvofiqlashtirish mumkin. Eng kerak bo'lgan jihati sozandaning o'zi ijro davomida cholg'u asbobining har bir asosiy va yonma-yon pardalari sozini doimo eshitib nazorat qilgan holda nafas kuchi orqali boshqarib muvofiqlashtirib toza va sof tovush hosil qilishi juda muhim ahamiyatga ega.

**Tovush tembri -**tovush sifatining muhim omillaridan bo'lib, har bir inson ovozi va cholg'u asbobi tovushga hos hususiyatdir. Tembrni go'yo kamalak ranglariga o'xshatsa bo'ladi.Kamalakning 12 xil rangidan qaysi bo'lmasa uning turfa xil rangligiga putur yetadi. Huddi shuningdek tovush tembri va chiroyining xilma-xil bo'lishida oberton garmonik tovushlar tarkibi juda ham katta ahamiyatga ega. Ya'ni obertonlar tarkibidagi tovushlardan qaysi biri jaranglamasa tovush tembri-go'zalligiga ham shunchalik putur yetadi.

**Vibrato–**to'lqinlanish, tovush nolasi. Tovush sifatini boyituvchi omillardan bo'lib, u tovushga o'ziga xos joziba baxsh etadi va go'yo uni qizdirib jonlantiradi. Bunda tovushning bir parda zonasi doirasida chorak va nimchorak pardalarda ko'tarilishi hamda pasayish harakatlari kuzatiladi.

Фортепиано учун Соната 3 қисм

Н.Пиатонов




Torli cholg'ularda vibrato cholg'u turiga qarab chap qo'l panjasi (kisti), yoki tirsagi yordamida amalga oshiriladi.

Vibratoni orkestr va ansamblida qollanishning o’ziga xos murakkab tomonlari bo’lib, bunda barcha sozandalarning vibrato qo’llashi juda qiyin. Shuning uchun jamoa ijrosida vibratoga extiyotkorlik bilan yondoshiladi.

Torlicholg’ular ijrosida tovushning go’zalligi va tozaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham sozandalar orasida ‘cholg’u asbobini kuylata olish kerak’ yoki ‘falon sozanda surnayga kalima qaytartiradi’ degan iboralar yuradi.

Torli cholg’ular dinamik imkoniyatlarga juda boy bo’lib, barcha kompazitorlar o’z asarlardagi turli ko’rinishlarni ifodali tasvirlashda ularga murojaat qilishadi.

Dinamik o’zgarishlarni 3 asosiy guruhga taqsimlash mumkin:

a) Turg’un ya’ni o’zgarmaydigan;

b) Asta-sekin o’zgaruvchan, pog’onama-pog’ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud. Kuchsizdan ***pp-p-mp-mf-f-ff***kuchliga va aksincha kuchlidan ***ff-f-mf-mp–p-pp*** kuchsizga susayib boruvchi;

v) qarama-qarshi – tavofuti - ***p- f, pp- ff***va unga aloqador urug’lar tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatidaasar mohiyatini oshishida xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh ijrochilik texnikasiga aloqador bo’lib unga barmoqlar harakati ijrochilik nafasi va barmoqlarning harakatchanligi kabi omillar kiradi va kuyda bular alohida mavzu sifatida yoritiladi.

Umummusiqiy ifoda vositalari usul, o’lchov, sur’at, agogika, artikulatsiya, kuy, motiv, fraza, jumla, davriya, kulminatsiya, avj va boshqalardan tashkil topadi. Bularni to’liq ravishda musiqa nazariyasi, musiqa shaklining tahlili va doimiy garmoniya fanlari o’rganadi.

Musiqa tovushiga o’ziga xos xarakter, bo’yoq berilishiga va maskur tovushlarning o’zaro mutanosib qo’shilishiga shtrix deyiladi. Shtrixlar dastlab torli kamonli cholg’ularda, asosan skripkachilarda kamonni yurgazishda turli uslublardan foydalanishda qo’llanila boshlangan. Damli cholg’ular ijrochilari ham ko’pgina shtrixlarni skripkachilardan o’rgangan. Shuningdek, damli cholg’ularda ham o’ziga xos shtrixlar paydo bo’la boshlagan.

Ijrochilikda shtrixlarning ahamiyati nihoyatda muhim bo’lib, ularni so’zlashdagi talaffuzga o’xshatish mumkin. Ya’ni (biyron va ravon talaffuzda) ijro qilingan kuy barcha uchun tushunarli va zavqli bo’ladi.

Albatta har bir cholg’uning o’ziga xos shtrixlari mavjud.Ya’ni torli cholg’ular hech qachon frullato yoki qo’sh staccato chala olmaydi. Shuningdek damli cholg’ular ham spiccato yoki  col legno shtrixini chiqara olmaydi. Klassik kompozitorlar o’z asarlarining partituralarida har bir cholg’uning o’ziga xos shtrixini ifodalaganlar.

Тўртинчи симфониянинг Финал қ.




XX asrda yashab ijod etgan kompozitorlar ham ushbu o’ziga xoslikni saqlagan holda ijod qilganlar.

## 1.2Kontrabas cholg'usi tarixi va kelib shiqishi

Har bir cholg'uning kelib chiqish tarixi bolgani kabi, kontrabas cholg'usi ham o'z kelib chiqish tarixiga ega. Kontrabas sozi skripkalar oilasiga mansub bo'lib, XVII asrning ortalarida paydo bo'lgan. Uning ajdodi violo da gambo (violone) deb atalgan. Mazkur sozdan, bas yo'lini chuqurlashtirish maqsadida kontrabas violasi tarkib topgan.U pastki tembrga ega bo'lib, o'ziga hos melodik ohangni kuchaytirishga sabab bo'lgan va ansamblda o'z ornini qat'iy egallagan. Viola kontrabas ham hozirgi kontrabaslar shaklida (razmerida) bo'lgan. To'rtta torli kontrabasni birinchi bo'lib italiy soz ustasi Mikelo Todini yaratgan. Shundan so'ng kontrabasni skripka sozning mohir ustalari Amati, Stradivari, Testori, Rudjeri va Galyano, Granchino, Gvarneri, Gasparo yaratganlar. Kontrabas sozi birinchi qo'llanilishi italiyada XVIII asrning boshlarida kompazitor D. Aldravandining "Sezar Aleksandriskiy " operasida bo'lgan va shundan keyin kontrabas sozi orkestrda o'z mavqeyini mustaxkam o'rnatkan.XVIII asrning o'rtalarida kontrabas sozi alohida (solist) ijroda ham qo'llanila boshlagan va mazkur cholg'uning moxir ijrochilari ham paydo bo'la boshlaganlar. Ulardan Domeniko Droganetti, Jovanni Battezini, Frantishek Simandl, Sergey Kusevetskiy, Iosef Gertovich,aleksandr Milushkin, Radion Azarxinlar shular jumlasidandur. O'zbekistonda ham kontrabas sozi XX asr boshlaridan ansambl, orkestrlarda qo'llanilib kelinayapti. Shu o'rinda quyidagilarni ta'kidlash o'rinliki, 1936 yilda o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish va kengaytirish maqsadida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor A I Petrosiyans rahbarligida "Musiqa sozlari – eksperimental labaratoriyasi" tashkil etiladi va soz ustalaridan B.A. Romanchenko, A.A. Kexvoyans, S.E.Didenkolar avvaliga g'ijjak kontrabas sozini, so'ngra qobuz kontrabasni yaratishadi. Yana kontrabas sozi xususida shunga alohida urg'u berish zarurki, mazkur soz hozirda 4 tordan iborat. (5 torli kontrabasdan ham gohida qollanilib turiladi.) O'zbekistonda ham kontrabas sozining mohir ijrochilari talaygina. Ulardan Respublika xalqaro- ko'rik tanlovi

g’oliblari Akbarxo’jayev Muzaffar, Karmov Shuxrat, Mirzayev Dilshod, G’ulomov Nurillaxo’ja kabi ijrochilardir.

Kontrabas cholg’usining kelib chiqish tarixi uyg’onish davriga to’g’ri keladi.Uyg’onish davrida kontrabas cholg’usidan tashqari boshqa, turli bas tembrli cholg’ular mavjud bolgan. Ularga bas skripka, bas lira da gamba, lirone perfekto va boshqa turli tuman oilalarga mansub cholg’ular bolgan. Kontrabas cholg’usi esa viola oilasiga mansub.

Viola oilasiga mansub cholg’ular Evropada XV asrdan boshlab XVIII asrgacha juda keng qollanilib kelingan.Viola oilasiga daslab 3 xil cholg’u kirgan:

Diskont, alt, tenor, violalar. D’amur cholg’usidan tashqari XVII asrgacha viola oilasiga mansub cholg’ular grifida ladlar mavjud bolgan va ularni hajmiga qaramay vertikal holatda, oyoqqa qoyib chalishgan.



“Viola da gamba” nomi asosan tenor violaga mos kelgan.Bu cholg’u viola oilasining “boshi” hisoblangan va yakkaqon ijroda koplab yutuqlarga erishgan.

Odatda unda 6 ta tor bazilarida esa 7-tor –pastki lya simi qoshilgan. Viola da gamba cholg'usining sozlanishi kvarta-tertsiya:



Diskont, alt va tenor viololardan keyin XVI asrda ushbu oilaning yana bir vakili yuzaga chiqti -- katta bas viola da gamba (violone). Violone cholg'usida 6 ta tor har bir torda 6-7 lad mavjud bolgan.Uning sozlanishi tenor da gambalardan pasroq sozlangan. Violonening 4 xil sozlanishi:



Bu cholg'u kamer musiqasida ilk bora 1910 yili paydo bolgan. Keyinchalik esa skripka sonata va syutalarida jornavoz vazifasini bajara boshlagan. O'zi esa yaqqol XVI asrda yaqqol ko'zga basso continuo sifatida tashlana boshlagan. Shu davrlardan boshlab kuylarda mustaqil motivlar, temalar ijro eta boshlagan va ansambllarda ansambl ustuni sifatida, kompozitorlarda esa ushbu cholg'uga urg'u berish, uni yanda yorqinroq korsatib berishga talab kuchaygan.

Cholg'ulashtirish ishlari boyicha XVI asrning oqirlariga kelib o'z ornini topgan. Ushbu cholg'uning ilk suratini (1528-1588) yili yashab ijod qilgan venetsiyalik rassom Paolo Veroneze o'zining ot ustidagi nikoh (1563) asarida tasvirlagan. Ushbu kartinada bir necha venetsiya rassomlari turli tuman cholg'ularda ijro etishar edi.Titsiyan o'tirgan holda o'ta mohirlik bilan kontrabas violasida ijro etar edi.Ushbu cholg'uga XVI asrning yarimidan boshlab jiddiy higoh bilan qaray boshlaniladi.

Opera san'atiga kontrabas viola cholg'usini ilk bor Kloudio Monte Verdi Orfey operasida qollaydi.Partituradan u 1609 yilda venetsiyada ikkita kontrabas ilk bor o'z ornini topadi.





Ilk bor kontrabas violasi  haqidagi tasdiqdan o’tgan malumot XVII asrning boshida nemets cholg’ushunosi Mixaelem Pretoriusom (1571-1621) tomonidan berilgan.Uning fikricha kontrabas violasi asarlarda oktavali kelishi maxsadga muvofiqdir.Dalee Pretorius takidlashisha kontrabas viola partiyasida nota boshida yani kalitda fa notasi turgan.Uning ovoz tembri yozilgan tembrdan oktava pas eshtilgan.Shu bilan XVI asrning boshidayoq kontrabas nota yozuvida ba’zi asosiy elementlar paydo bola boshlagan.Kontrabas violasida 5, bazida 6 tagacha tor bolgan. Pretorius fikricha ko’pchilik 5 torli kontrabasni maqullashgan va uning sozlanishi ushbu holatda bo’lgan.




Fransiyada ushbu ketma-ketlikdagi torlar quyidagi nomlarni olgan:

1.chanterelle  (kuylovchi)

2.secondo

3.tierce

4.quarte

5.bourdon (qisman asalari)

Quyidagi jadvalda kontrabas cholg'usiga mansub turli cholg'ularning umumiy o'lchamlari keltirilgan.

| Cholg'u nomlari | Umumiy uzunligi | Asosiy qism uzunligi | Obechaykalar balandligi |
|---|---|---|---|
| Kichik bas viola da gamba (tenor viola da gamba) | 112-129 sm | 65-72 sm | 11-14 sm |
| Katta bas viola da gamba (violone) | 135-145 sm | 85-90 sm | 15-17 sm |
| Kontrabas viola da gamba (kontrabas) | 180-200 sm<br>185-190 sm | 105-120 sm<br>110-116 sm | 20-23 sm<br>18-20 sm |



Hozirgi kontrabas cholg'ularining hajmi taxminan oldingi, ilk kontrabas violo cholg'usi bilan bir xil, faqatgina pastgi beshinshi sim farq qiladi.Agar

kontrabas violo cholg'usidagi beshinshi sim olip tashlansa hozirgi to'rt simli kontrabas cholg'usidan farqi qolmaydi. Bu cholg'u kamonli torli cholg'ulardan hajmi jihati bilan farq qiladi. U o'z kattaligi bilan qoganlardan ajralib turadi. Ushbu cholg'uning har bir qismini yasash uchun turli xil daraxtlardan foydaliniladi. Oldi dekasida ( $f$ ) shaklidagi akustik darcha bo'lib, qadimda ushbu darchaning shakli (C) shaklida bo'lgan oldi dekaning ichki tarafida (purjina) deb nomlangan akustik yog'och ornatiladi. Oldi va orqa dekalar oralig'ida esa (Harrakka Nisbatan sa'l pastroqda) dumoloq shaklidagi uzinshoq yog'och (dushka qoyiladi). U akustik jihatdan eng muhim hisoblanadi.

Kontrabasning bosh qismida temirdan yasalgan mexanizm – quloqlar bo'lib, ular simlarni sozlashda yordam beradi. Kontrabas cholg'usidagi ushbu mexanizm skripka oilasidagi boshqa simlarni sozlash mexanizmidan farq qiladi. Kontrabas uchun bu mexanizmni 1778 yil Berlinlik usta Karl Baxman oylab topgan. Shu bilan birgalikda usha yili ya'ni, 1878 yilda Italiyalik mashxur usta Karl More Latti. Huddi usha mexanizmni kontrabas cholg'usiga o'rnatgan.

Kontrabas cholg'usini turgan vakil o'tirgan holda ijro etish mumkin.O'tirib ijro etishda ijrochiga maxsus kursi kerak bo'ladi. Cholg'unung tagi qismidagi tugmachaga qadalgan maxsus temirdan yasalgan tirgak ( shpill ) cholg'uni ijrochi turib yoki o'tirib chalganda ijrochiga moslash uchun balandroq toki pastroq qilishda yordam beradi. Kontrabas violasi va kontrabas cholg'ularini XVI- XIX asrlarda dunyoning turli davlatlarida har xil ustalar yasaganlar. Ularning orasida eng mashxurlari Italiyalik – Gasparoda Salo, Amatit, Bergunsiy, Galyano, Dvarneriy, Grachino, Madjini, Rossi, Testore, ustalar eng mashxurlaridir. Torli kamonli cholg'ularni yasagan dunyoga mashxur ustalar kontrabas cholg'usini ham chetlab o'tishmadi. Ulardan Fiussena, Mittenvalda, Marknoykirxena, Xindle, Shtayner, Shtadilman, Posh, Tir, Klots bizlarda malumdir. Kontrabas cholg'usini moxirlik bilan yasashda Fransiya, Angliya, Rossiya va Evropaning boshqa davlatlaridagi ustalar dunyoga mashxurdirlar. Kontrabas cholg'usini rivojlanishi va ushbu cholg'uning ijro tarixiga o'z xissasini qosha o'lgan ijrochilar: D.Dragonetti,

J.Bottezini, R.Gabdullin, R.Ibragimov, R.Patkolo, Robert Black, S.Kusevitskiy, K.Rotaru va boshq dunyo miqyosidagi ijrochilar bizga juda tanishdirlar.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib kontrabas tarixida sezilarli o’zgarishlar bo’ldi. Bu paytga kelib 5 torli kontrabas yaratildi. Uning sozlanishi F – A – B – Fis -- A. aynan shu besh torli kontrabasga atab kompazitorlar 30 dan ortiq konsertlar yozishgan. Ular orasida E. Gaydn, A. Motsart bizga malum.

Hozirgi kunda bizga malumki, kontrabas cholg’ulari maxsus ishlab chiqarish korxonolarida yoki maxsus ustaxonalarda qollanma yordamida yasaladi. Koplab zamonaviy ustalar kontrabas cholg’usi shaklini haligacha eski holatda yasashadi. Masalan Amatey kontrabas korinishlari haligacha o’zgarmagan. O’quvchilar uchun, yakkaqon ijrochi kontrabas cholg’usi kichikroq hajmda yasaladi – 2/4, 3/4 , 7/8. Estrada va jazz ijrochilari hozirgi kunda elektraakustik qurilmalardan foydalana boshlashadi. Kontrabas simlari boshqa kamonli torli cholg’ularning simlari kabi qadimda hayvon ichagidan foydalangan. U juda qalin bo’lib, ijrochiga aniq nota olish noqilay bo’lgan, kamonni yurg’izganda birmuncha qiyinchiliklar mavjud bo’lgan. XVII asrga kelib kontrabas cholg’usidagi past registrdagi simlarini qalinligini kamaytirish uchun hattoki sentetikadan ham foydalanishga urunib korishgan. XX asrning ortasiga kelib metaldan yasalgan simlar kontrabas cholg’usi tarixida revolyutsion burilish yasay oldi. Yetarli darajada ingichka, ular aniqlikni, toza ton va ijrochiga ushbu cholg’uni chalish uchun haqiyqiy moxirlik darajasidagi imkoniyatni yaratib bera oldi.Hozirgi kunda ushbu ajoyib metal simlar turli variantlarda mavjud:orkestrda ijro etish uchun, yakkaqon ijro etish uchun. Simlarni o’ziga hos simlarni har qil korxonolar o’ziga hos tarkibi asosida yasashadi. Ulardan : Tomastik, Pirastro, Savares – Korelli va boshqalari bizlarga yaxshi tanish.

Kontrabas cholg’usi ijrosida kamon ham muhim rol oynaydi. Kamonlar qadim-qadimdan tuzilishi jihatidan ikki xil ko’rinishda bo’lgan:

1) Kichik dastali – fransuz uslubida
2) Katta dastali – nemets uslubida

Kamon yog'ochdan yasalgan ( trost ), dasta ( kolotka ), qil, vint dan tashkil topgan. Kamonning trosti egiluvchan qattiq va mustaxkam daraxtdan asosan – fernambuka daraxtidan yasaladi. Kamonni dastasi esa asosan qora daraxt yoki plastikdan yasaladi. Kamonni qillari ot yolidan olinadi. Vint esa metaldan yasaladi.

Kichik dastali kamon yillar davomida skripka oilasiga mansub kamonlarning takomillashishi natijasida paydo bo'lgan. Uni Fransuz ustasi F.Turtom-kichkina XVIII asrning oqirgi choragida kashf etgan. Fransuz uslubidagi kamon violonchel kamonidan o'zining hajmi, og'irligi bilan farq qiladi. Lekin ijro jarayonida kamonni ushlash, shtrixlarga yondashish bir-biridan umuman farq qilmaydi.

Katta dastali kamonlar pastdan ushlanib, asosan qadimgi gambovie violasi kamoniga uqshab ketadi.

Besh asrlik vaqtni o'z ichiga olgan kontrabas tarixi o'zining shakli, hajmi, sozlanishi, yasalishi va boshqa hususiyatlari bilan o'z tarixini boyitib kelgan. Faqatgina XIX asr oxirilari, XX asr boshlariga kelib u o'zining ovoz tembri, ijro uslubi bilan tinglovchilar nazariga tushdi. Kontrabas cholg'usiga bag'ishlab, uning kattaligi, jismoniy tarafdan qiyinchiligiga qaramay, ansambl, orkestr va hattoki, yakkaxon ijroda ham mohir uslubdagi asarlar yozila boshladi.

Odatda zamonaviy kontrabas 4 simli bo'ladi: mi (E) – lya (A) – re (D) – sol (G) ya'ni, kvarta boylab sozlanadi. Lekin shunga qaramay, Evropaning ko'plab simfonik va opera orkestrlarida 6 – 10 tagacha besh simli kontrabas cholg'usidan hozirgacha foydalanadi. Ushbu 5 simli kontrabas cholg'usiga odatda pastki si (H) yoki do (C) simi qoshiladi. AQSh va Angliya davlatlarining ko'plab orkestrlarida maxsus qurilma yordamida ushbu pastgi beshinshi sim do notasidan si gacha tushira olish imkoniyatiga ega.

Yakkaxon ijro va sinf darsliklarida hozigacha "transport" yordamida ijro etish usubi mavjud. Bu jarayonda cholg'u Fis – H – E – A notalariga sozlanadi. Lekin shunga qaramay ijrochi uchun notalarni oldingidek bir ton pas oqish imkoniyati yaratilgan. Orkestrda, kamer ansambllari va hattoki yakaxon ijroda ham

kontrabas cholg’usi nota yozuvi boshida 3 xil kalitdan foydalanadi:  bass, tenor va skripka.



Zamonaviy kontrabas ijrosi ijro jarayonida o’z ichiga tortta oktava:   kontr oktava mi dan (besh simli cholg’ularda subkontr oktava  si ) ikkinchi oktava  sol notasiga ( flojolet notalarining eng baland registrlarini hisobga olgan holda).



## II BOB.Kontrabas cholg'usida shtrixlar ustida ishlash

### 2.1.Kontrabas cholg'usida pozitsiyalar va ular haqida malumot

**Pozitsiya –** ijro jarayonida chap qo'l barmoqlarini kontrabas dastasida joylashishiga aytiladi. Bir pozitsiyada 3 ta nota, 4 tor bo'yicha 12 ta nota bo'ladi.Har pozitsiyani bir barmoq belgilaydi.Asosiy pozitsiyalardan tashqari bosh barmoq pozitsiyasi ham borki, u to'g'rida keyinroq to'xtalamiz.

Pozitsiya nomlanishi:

I -- birinchi pozitsiya

II -- ikkinchi pozitsiya

III -- uchinchi pozitsiya

IV -- to'rtinchi pozitsiya

V – beshinchi pozitsiya

VI – oltinchi pozitsiya

VII – yettinchi pozitsiya

**Yarim pozitsiya applikaturasi.**Applikatura- nemischa Applikatur, lotincha Applik – sozidan olingan bolib, qoymoq-bosmoq ma'nosida, musiqa cholg'ularida ijro jarayonida barmoqlarni qo'yish va almashtirish tartibiga ishlatiladi.

Birinchi barmoq bilan bosib chalganda tovush ochiq tordan yarim ton yuqori bo'lsa yarminchi pozitsiyada turgan bo'lamiz. Yarminchi pozitsiya quyidagi notalarni o'z ichiga oladi:




Re tor




Lya tor




Mi tor




Si♭ major gammasi



## Etyud

B.Otayev

Andante




## Etyud




## ALLA

N.Baklanova

Moderato





**Birinchi pozitsiya.**Birinchi yarim pozitsiyadan barmoqni surish bilan tordagi tovush yarim ton yuqori ko'tariladi va barmoqlar birinchi pozitsiya holatiga keladi. Birinchi pozitsiyada quyidagi notalar mavjud:




Sol major gammasi va uchtovushligi



## Etyud

Y.Saydaliyev




## Etyud

F.Simandi




## ALLEGRETTO

V.Motsart





## QO‘SHIQ

D.Zokirov



**Moderato**











**Ikkinchi pozitsiya.** Chap qo'l holatini 2-pozitsiyaga keltirishimiz uchun 1-pozitsiyada ikkinchi barmoq bilan olingan notani birinchi barmoq yordamida ijro etamiz.

Pozitsiya quyidagi notalarni o'z ichiga oladi:




## Do major gamma va uchtovushliklar





## Etyud

Y.Saydaliyev

**Allegretto**




## Etyud

D.Kummer

**Andante**



**Uchinchi pozitsiya.**Ikkinchi pozitsiyada to’rtinchi barmoq bilan olingan notani birinchi barmoq bilan ijro etishga o’tsak, shunda chap qo’lning holati uchinchi ga o’tadi.

Uchinchi pozitsiyada quyidagi notalar mavjud:




Re major gamma va uchtovushliklar




Etyud

Y.Kment

**Andante con moto**





## O‘QUVCHILAR QO‘SHIG‘I

F.Amirov



**Tempo di march**



**To’rtinchi pozitsiya.**Uchinchi pozitsiyada to’rtinchi barmoq bilan olingan notani birinchi barmoq yordamida ijro etishga o’tsak, shunda chap qo’lning holati to’rtinchi pozitsiyada bo’ladi.

To’rtinchi pozitsiyada quyidagi notalar mavjud:




Mi major gammasi va uchtovushliklar









## Etyud

B.Otayev




## ONAJON

S.Abramova






BULBA

Belorus xalq kuyi








**Beshinchi pozitsiya.** To'rtinchi pozitsiyada ikkinchi barmoq bilan olingan notani birinchi barmoq yordamida ijro etishga o'tsak, chap qo'l holati beshinchi pozitsiyada bo'ladi.

Beshinchi pozitsiyada quyidagi notalar mavjud:






Fa major gammasi va uchtovushliklar.




## Etyud

F.Simandle

**Moderato**





## QUSHLAR



F.Amirov

**Allegretto**





## HOY, ISHCHILAR

H.H.Niyozi






mf
p


p
1.
2.

**Oltinchi pozitsiya.**Beshinchi pozitsiyada to’rtinchi barmoq bilan olingan notani birinchi barmoq yordamida ijro etishga o’tsak, chap qo’lning holati oltinchi pozitsiyada bo’ladi.

Pozitsiyada quyidagi notalar mavjud:




Sol major gamma va uchtovushliklar



Etyud

B.Otayev






## Etyud

**Moderato**

F.Simandl



**Yettinchi pozitsiya.**Oltinchi pozitsiyada uchinchi barmoq bilan olingan notani birinchi barmoq yordamida ijro etishga o’tsak, bunda chap qo’lning holati yettinchi pozitsiyada bo’ladi.Bu pozitsiyada birinchi nota ochiq torning sakkizinchi bosqichi oktavaga, flajolet holatiga keladi.Lekin birinchi barmoq bilan torni bosib olish qulayroq bo’ladi.

Bu pozitsiya quyidagi notalarni o’z ichiga oladi:



Lya major gamma va uchtovushlar








**Yuqori pozitsiyalar.**Yuqori pozitsiyada ya'ni VI, VII pozitsiyalardan keyin chap qo'l, torlar ustida harakatlanayotgan barmoqlar qo'yilishi oldingi ko'rinishdan ozgina farqlanadi.





Kontrabas shaklan katta cholg'u bo'lganligi sababli, yuqori pozitsiyalarda tirsak sal ko'tarilgan holatda; bosh barmoq dumbaloqchasi yon tomoni bilan torlar ustiga qo'yilib, qolgan barmoqlar singari notalar ijro etishda qo'llaniladi.Bu jarayonda cholg'u dastasi ijrochiga tegib turishi yanada zichlashadi.Notalar yuqorilagan sari ular tenor yoki skripka kalitida yoziladi.




2.2. Kontrabas cholg’usida shtrixlar ustida ishlash

**Asosiy shtrixlar.**Ijrochi uchun kamon yurgizish texnikasi asosiy jarayon hisoblanadi.Kamonni torda turli uslubda yurgizish bilan har-xil tovushlar hosil qilish mumkin.Anashunday tovush hosil qilish *shtrix* deb ataladi.Tovush ma’lum bir xususiyatga ega bo’ladi. Shtrixlar uchta asosiy guruhga ajratiladi;

1) Ravon
2) Uzib
3) Sakrab

**Ravon shtrixlar**

**Detashe**(detache) – shtrix, bunda har bir tovush kamonning alohida harakati bilan pastga (P) yoki yuqoriga (V) yurgizishda ijro etiladi. Har qanday tovush ohangida, tusida ushbu shtrix keng va to’liq sadolanishi zarur. Kamon almashinuvi ravon va mayin bo’lmog’I lozim. Detashe kamon texnikasining asosidir.



Норим-норим




Detashe kamonning butun uzunligi yoki uning o’rta, quyi va yuqori qismlarida ham ijro etilishi mumkin. Detashe kamonning qaysi qismida ishlatilishi

kuyning mazmuni va suratiga bog’liq. Detasheda qo’lning barcha qismi ishtirok etadi.Detashe nota ustiga yoki ostiga (--) chizig’I bilan belgilanadi.

**Legato**(legato) – shtrix, bog’lanish ma’nosida bo’lib, bunda kamonning bir tomonga (P) yoki (V) bo’lgan harakatida ikkita va undan ortiq tovushlar ijro etiladi. Legatoda tovushlar ikkinchi tovushga o’tish mayin, epchil va deyarli sezilarsiz bo’lmog’I lozim.

.

Еттинчи симфония, 1 қисм

Д.Шостакович




**Legatissimo –** tovushlarning yanada ko’proq bog’liqligini talab qiladigan shtrix.

Боғчасарой фаввораси, 3 қисм




Legato shtrixida kontrabasning sadolanishi juda kuychan va yoqimli bo’ladi. Legato shtrixining chegarasi liga chizig’I bilan belgilanadi. Legatoni o’zlashtirishda asosiy talab kamonni to’g’ri taqsimlashdadir. Bir xil cho’zimdagi bir necha notalar liga chizig’I bilan bog’langan bo’lsa, qil tasmasi ham shuncha qismga bo’linadi.



Kamon teng ikki qismga bo’linadi. Kamon teng to’rt qismga bo’linadi.

Ijro vaqtida kamon bir tordan ikkinchi torga o'tadigan vaqtda o'tiladigan torga asta-sekin o'ng qo'lni yaqinlashtirib, uni (sezilarsiz) qo'shni torga o'tkazib legato davom etadigan notalar chalinadi.

**Non legato** –kamonning yumshoq zarbi natijasida tovushlar bir-biriga bog'lanmasdan chalinadi. Bunda har bir tovush orasida kichkina pauza hosil bo'ladi.

«Марварид қидирувчилар», 2 саҳна




Detashe va legato shtrixlari almashinib kelganida qurama (kombinatsiyalashgan) shtrix hosil bo'ladi, ya'ni:



Bu shtrixning turli ko'rinishlarida kamonni to'g'ri taqsimlash katta ahamiyatga egadir. Masalan:

a) Alohida notalar avval kamonning yuqori yarim qismida, so'ngra quyi yarim qismida chalinadi. Ko'p holarda o'quvchi alohida notalarni legatodan kuchliroq chalishga moyin boladi. Bunday hollarda kuyning ravon sadolanishiga putul yetadi.
b) Uch nota legato, biri detasheda ijro etilganda alohida chalinadigan nota dag'al eshtilmasligi lozim. Buning uchun alohida chalinadigan notada kamonni legatodagi notalarga nisbatan tezroq va yengilroq tortish lozim. Agar legato bilan bog'langan notalarning ostiga yoki ustiga chiziqchalar qoyilgan bolsa, u holda kamonning bir tomonidagi harakatida har nota boshlanishiga yumshoq urg'u beriladi. Bu usul partato (italyancha takidlash) deyiladi.



### Uzib chalinadigan va urg'u (aktsent)li shtrix

**Stakkato** (staccato) – bir yoki birnechta tovushlarni qisqa va uziz-uzib chalish uslubidir. Bu shtrixda nota yozuviga nisbatan (sanoq boyicha) qisqa chalinadi.



Рақс




**Stakkatassimo -** stakkatoga qaraganda ham qisqa stakkatassimoyozuvi bilan ifodalanadi**.**

**Markato**( markato) –urg'ulangan detashe tovush ijrosi urg'u bilan boshlanib,borgan sari kuchi pasayadi.

Markato – kamonni torga zich bosib, shaxdam yurg'izish bilan sadolantirib, songra kamonni bosimini va tezligini pasaytirib, tovush kuchini susaytiiladi. Lekin tovush o'z chozimi davomida toqtab qolmasligi shart.

Markato urg'u (>) belgisi bilan ifodalanadi.

Трубадур




**Martle –** uzib chalinadigan shtrix bo'lib, unda kamon aktsent bilan tez tortiladi va keskin to'xtatiladi.

Martle – nota ustiga yoki ostiga (v) belgisi bilan ifodalaniladi.Bu shtrix kamonning barcha, asosan yuqori qismida ijro etiladi.

**Viotti –** bu shtrix kamonni bir yo'nalishida ikki notani uzib-uzib martleda ijro etishdir.Shunda birinchi nota kuchsiz (*p*) da ikkinchi nota esa kuchli (*f*) keskin aktsent bilan chalinadi.Bu shtrix Italiyalik kompozitor, skripkachi nomi bilan ataladi.



**Spikkato (**spiccato) – shtrixida kamon tor ustida sakratib, tavushlar orasida qisqa-qisqa pauza hosil qilgan holda chalinadi. Asosan o'ng qo'l panjasi harakati bilan (*p,pp*) da kamon o'rtasi bilan, forte (*f,ff*) da esa kamonning dastasi yaqinida ijro etiladi.

### Flojoletlar

Kontrabas sozida barcha so'zlar singari torlari o'zining bo'laklariga qarab oktava, kvinta, kvarta, tertsiya, sekunda, hattoki primada sof notabiiy ovozlarga ega. Ular **flojoletlar** deb ataladi.Torli cholg'ularda flojoletlar puflab chalinadigan asboblar tovushiga o'xshaydi. Shu sababli flojolet fransuzcha flageolet – so'zidan olingan. Flojoletlar xushtakka o'xshash mayin va ingichka tovush hosil qladi.

Tabiiy flojoletlar ochiq torning muayyan nuqtalarida barmoq yengil tegib turishi bilan hosil bo'ladi.

Flojolet to'rtburchak shaklida yoki notalar ustiga qo'yilgan doirachalar (0) bilan ifodalanadi.





Ijro amaliyotida turli shtrixlardan tashqari tovush hosil qilishda kamon ishlatmaydigan alohida uslub borki, unda torni o'ng qo'l barmoqlari bilan chertib chalinadi. Bu uslub pitsikato – deyiladi va nota yozuvida pizz deb belgilaniladi. Gohida chap qo'l barmoqlari ishtirokida ham chertib chalish hollari uchrab turadi. Bu hol ustiga yoki ostiga qo'yilgan Q bilan belgilanadi.

**Tebranish ( vibratsiya)**

**Tebranish** (vibr.) – kamonli cholg'ularda o'zlashtirish zarur bo'lgan asosiy ko'nikmadir.

Tebranish (vibr.) – torni dadil bosib, panja tirsak yordamida barmoqlar ayrim hollarda qo'lning yuqori qismi domboqchalarini goh u yoni, goh bu yoniga tebratish oqibatida hosil bo'ladi.

Qaysi barmoq vibratsiya qilayotgan bo'lsa, bosh barmoq o'sha barmoqqa qarama-qarshi holatda turadi.Kontrabasda vibratsiya skripka, alt, violonchel cholg'ularda ishlatiladigan vibratsiyadan farqlanishi kerak. Ayniqsa quyi pozitsiylarda barmoqlar tebranishi bosiq va salobatli holda harakatlanmog'I lozim.

Tebranish (vibr.) erkin va ravon bo'lishi kerak. Asosiysi, tebratish omili kuyning xarakteriga moslab ijro etiladi.

**Glissando** –kuyningsirpanchiq harakati nota yozuvida to'g'ri yoki to'lqin simon chiziq bilan belgilanadi. Torli cholg'ularda pastgi registrdan yuqoriga va aksincha yuqoridan pastga sirpanish orqali amalga oshiriladi.

Яккахон кларнет учун соната



## Xulosa

Jaxonning turli avlod vakillariga mansub kompozitorlarning ijodiga nazar solsak, torli cholg'ularga yaratgan asarlarida turlicha yondashuv va uslublarga murojaat qilishganini korishimiz mumkin.Torli cholg'ularning ijrochilik hususiyatlarini o'zida jamlagan badiyiy barkamol asarlarni yaratish borasida jahon kompozitorlari bugingi kunda xam tinmay ijod qilishmoqda. Ayniqsa, yosh avlod vakillariga mansub O'zbekiston kompozitorlari torli cholg'ularga asarlar yaratish borasida tez-tez murojaat qilishib, izlanishlar olib bormoqda.

O'quv yillari davomida ustoz rahbarligida turli janrlarda ko'plab asarlar ijto etdim. Olgan bilimlarimni mustahkamlash, nazariyani amaliyot bilan bog'lash maqsadida mashxur ijrochi – sozandalarning video va audio yozuvlarini tinglab-tomosha qildim. Bu esa menga o'z navbatida kamchiliklarni yanada to'ldirishda, hech qaysi adabiyotlarda bo'lmagan qimmatli ma'lumotlarni olishimda yordam berdi. Ammo, torli cholg'ularda asar ijro etish va amaliyotda sinab ko'rish bir muncha murakkab. Sababi, ularning har birini alohida tabiati, ijrochilik uslublari, tamoillari, imkoniyatlari mavjud bo'lib, bir-biridan tubdan farq qiladi. Bitiruv ishi sifatida taqdim etayotgan ushbu mavzuni yoritish ham menga katta maktab bo'ldi desam adashmagan bo'laman.

Kelajakda, repertuarimni rivojlantirish maqsadida, mustaqil ijrochi sifatida kantrabas uchun, ko'plab barkamol asarlarni ijro etishni o'z oldimga rejalashtirib qo'ydim.

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, O'zbekiston kontrabas ijrochiligini yanada rivojlanishida, yosh ijrochilar ijro sifatining darajasi oshib borishida ham o'zining konsert faoliyati bilan katta hissasini qo'shdi degan umiddaman.

## Glossary

**Ushbu atamalar glossarysida ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarda keltirilgan atamalarning qisqacha izoqi keltirilgan.**

**Ijrochilik tamoyillari:**

1. Cholg'u sozida erishilgan texnik maxoratni musiqaning badiyiy mazmunini ochib berishga xizmat qildirish.

2. Cholg'u asbobida yuksak badiiy ifodali ijro qilish, "cholg'uni kuylatih" .

3. Badiiy ijro, yani kompozitor fikriga hamohanlik, belgilangan maxsaddan chetlashmaslik.

4. Sanadagi tashqi korinishda oddiylik, har xil uslub va yo'nalishlarga ergashmaslik.

Ana shu tamoillar kelgusida shogirtlar yetishtirishning asosiy negizi bo'lib xizmat qila boshladi.

**Musiqiy asar :**

Ma'lum bir musiqiy asar B Asafev ta'biri bilan aytganda 3 xil ko'rinishda mavjud bo'ladi.

1. Bu nota matni, ya'ni yozuv asosida.

2. Ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda.

3. Tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarining u tomonidan qabul qilinishi natijasida asarni haiyqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi.

**Diqqat:**musiyqa san'atida ijrochining hissiy, intelektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiyqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liq bo'lib ijro qilishda u juda muhimdir. Ya'ni orkestrda chalishdan oldin dirijorning ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaqon va jo'rnavoz o'rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi diqqat deb yuritiladi.

**Sezgi**– inson orgnizmi tomonidan eshitish, ko'rish, hid bilish, tana sezgisi, ta'm bilish, va xokazo a'zolar orqali moddiy dunyoni anglaydi.

**Idrok:**Narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishiga idrok deyiladi. Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O'z ijrosini eshitgan sozanda tajribasiga tayanib tahlil qiladi va umumiylashtirgan holda hulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi.

**Tasavvur**bilimning ibtidosi bo'lib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil bo'ladi va tafakkurdan farqli o'laroq ijrochi hayotida aks etadigan tushunchalar tizimi bolib, ba'diiy ijodiyotning barcha turlariga hosdir.

**His, tuyg'u va hayajon (emotsiya):**Inson ruhiyatining o'ziga hos hususiyatlardan biri bo'lib, kishi o'zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofni orab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotta bo'ladi. Buning natijasida shodu-hurramlik, qayg'u va g'am, to'lqinlanish va hayajon, mag'rurlik va iftihor, jahl va g'azab, g'ayratlanish, hafa bo'lish kabi boshqa ko'plab mayil va tuyg'u (ob'ektiv dunyoga sub'yektiv munosabat kechinmalari) lar insonning imotsional his-hayajon holatini ifodalaydi.

Emotsiya (tuyg'u kechinmalarning shakli) ijobiy va salbiy tuyg'ularga bo'linadi. Ijobiylari: shodu-hurramlik, tolqinlanish va hayajon, mag'rurlik va iftixor , hayraqtlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg'u va g'am jahl va g'azab, hafa bo'lish kabilardan tashkil topadi.

**Musiqiy ifoda** vositalari: Tovush hosil qilish va uning akustik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi ( intonatsiya), tovush tusi ( tembr) ,nola ( vibrato), usul ( ritm) o'lchov sur'at, agogiga artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

**Torli cholg'ularda ijroshilik vositalari:** sozanda o'z texnikasiga yani ong va chap qollar mohirligiga ega bolmog'I lozim. Bunda sozandaning ong va chap qollari o'z aro hamohang, uning musiqani his qilish qobiliyati, musiqa bilan birga nafas ola bilishi darkor. Ushbu sifatlarga sozanda yillar davomida tinimsiz qilingan mashqlar orqaligina erishishi mumkin.

**Tovush:**fizik hodisa bo'lib, tarang tortilgan jism ( sim,yassi plastinka ba xokaza ) ning tashqi ta'sir natijasida mexanik harakatga kelishi- tebranishi natijasida hosil bo'ladigan jarayondir. Tabiatda qulog'imiz ilg'aydigan turli hil tovushlar mavjud.Lekin ularning xammasi ham musiqiy tovush deb bo'lmaydi. Musiqiy tovush o'zining to'rt hossasi , a) bir-biriga nisbatan baland pastligi, b) tusi (tembri) v) daomiyligi, ya'ni cho'zimi, g) kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi.

**Intonatsiya ( lotincha – baland, yuqori):** Uning tozaligiga erishish uchun avvalo sozandaning cholg'u asbobi sifatli ishlangan va chalinib tajribadan o'tgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari tovushning toza shiqishi ijroshining mahoratiga va kayfiyatiga ham bog'liq. Shuningdek, cholg'udagi qoshimsha pardalar(дополнительная аппликатура) ni qollash orqali ham tovushni past yoki balandligini muvofiqlashtiris mumkin.

**Tovush tembri** (тembr fr. — tovush boyog'I, tusi, xarakteri ) tovush sifatining muhim omillaridan bo'lib, har bir inson ovozi va cholg'u asbobi tovushiga hos xususiyat.

**Vibrato – to'lqinlatish, tovush nolasi:** tovush sifatini boyituvchi omillardan bo'lib, u tovushga o'ziga hos joziba baxsh etadi va goyo uni qizdirib jonlantiradi.

**Tovush kuchi:** Tebranish harakatining kengligi va kuchiga bog'liq. Ya'ni tovush hosil qiluvchi membrananing tebranish miqqiyosi- amplitudasi qancha keng va kuchli bolsa tovush ham shuncha kuchli bolsa tovush ham shuncha kuchayadi. Dinamik o'zgarishlarni uch asosiy guruhga taqsimlanadi.

a) тurg'un , ya'ni o'zgarmaydigan;

b) asta-sekin o'zgaruvchan, pog'onoma-pog'ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud: kuchsizdan (pastdan): ***pp-p-mp-mf-f-ff*** kuchliga va aksincha kuchlidan***ff-f-mf-mp-p-pp***susayib boruvchi.

v) qarama-qarshi tafovutli (kontrasniy )***p-f, pp-ff***va unga aloqador urug'lar tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatida asar mohiyatini ochichda xizmat qiladi.

**Ijrochilik texnikasi:**Barmoqlar harakati, ijrochilik nafasi, til va lablarning harakatchangligi, chap va ong qollarning mutanosibligi kabi omillar kiradi.

**Ijrochilik holati** (исполнительская постановка): cholg'u sozini qanday ushlash, uni chalishga hozirlash va chalish uchun ( butun tana, bosh, qollar, oyoqlar, ambyushor ) tayor bo'lish tushiniladi.

«**Ambiyushor**» (frans. embouchure - bouche so'zadan olingan bo'lib, og'iz degan ma'noni bildiradi).

**Shtrix** (nemis. – chiziqcha, chizgi) rassomlarda yug'on ingichka qalin, tuk chiziqchalar muayyan portret obrazini ochib berganidek musiqada ham obraz yaratish uchun shtrixlar mavjud. Shtrixlar dastlab torli – kamonli cholg'ularda , asosan skripkachilarda kamonni yurg'izishda turli uslublar qollanila boshlagan.

**Artikulatsiya** barcha shtrix harakatlari orqali ( ma'lum kuy jumlasi yoki frazasida) erishilgan natijalar yig'indisi bo'lib muayyan shtrixlar asosida kuyning barcha ifoda vositalari (temp, ritm,dinamika, regstr) ning ham mutanosib va muvofiq ravishdagi ishtirokini ta'minlashiga artikulatsiya deyiladi.

**Membranofon–**qoplamali cholg'ular, ularga maxsus teri yoki plastic qoplangan baraban, nog'ora, doira, tom-tom, litavralarning turlari kiradi.

**Ideyafon–**o'zi tovush beruvchi cholg'ular bo'lib, ularning vujudiga mexanik ta'sir qilishi natijasida o'z tanasidan tovush hosil bo'ladi. Bular: turli tarelkalar, qayroq, safoyil, uchburchak (tregolnik), quticha (korobka), ksilafon va boshqalar.

**Rivojlanuvchi yoki qiyosiy eshitish qobiliyati:**Sozandaga bir tovush eshitkandan song boshqalari bilan taqqoslagan- qiyoslagan holda balandligini aniqlaydi.

**Mutlaq (absolyut) eshitish qobiliyati** bor sozanda esa tovush balandlikni tog'ridan-tog'ri boshqalari bilan taqqoslamasqan aniq ayta oladi.

**Zoxiriyo(tashqi) eshitish** orqali yakkaqon sozanda, hofiz, ansambl yoki orkestr tomonidan ijro qilingan asarini barcha jihatlari: balantligi, tembri, usuli va musiyqiy matnini aniqlab oladi. Ma'lumki bunday ustozona uslub sharq xalqlarida juda keng tarqalgan bo'lib, qadimdan otadan bolaga, ustozdan shogirtga ayniqsa musiqiy meros namunalari og'zaki, yani eshitish- tinglash orqali amalga oshirilgan va bizgacha yetib kelgan.

**Botiniy (ichki) eshitish:**Bunda insonning ishki tuyg'usi, ya'ni oldin eshtilgan, qulog'iga tanish bolgan hayolidagi asar kozda tutiladi. Bu hissiyot 5 ta jihatda namayon boladi:

a) oldin kimningdir ijrisida eshtilgan va hotiraga ornashib qolgan musiqiy obrazlar:

b) O'zi qachonlardir ijro qilgan asar yoki kuy qismini hotirlash:

v) asarni notadan cholg'u asbobisiz o'qigan holda sadolanishini tasavur qilish:

g) chalish yoki o'quvchiga tushintirish uchun asar va uning qismlari kompozitsiyasini hayolda shakllantirish:

d) ijro jarayonida birdaniga tayorgarliksiz (ekspromt) vadiha (improvizatsiya), namud (korinish), avj,(gulpartav) yoki yangi qismlar ijod qilish:

Boтiniy va zohiriy eshitish yillar otishi bilan bilim, tajriba, malaka oshgani sayin rivojlanib, sayqallanib boradi. Shuning uchun ham ta'limning birinchi qadamlaridan boshlab musiqiy eshitishni va eshitish nazoratini rivojlantirish o'ta muhimdir.

**Musiqiy hotira -** inson ruhiy jarayonining muhim mohiyati esa saqlab qolish va zarur paytda usha hotiradagilarni ma'lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish- nomoyon qilish hisoblanadi.

**Xotira turlari:**

a) balantligi, kuchi, tembri, lad tizimi, usuli ohangdoshligi, kuy va qoshiq shaklini esta saqlash bilan bog'liq hotira turlari:

b) Inson hiyofasi, tabiat manzarasi,buyum namunasi, biror obraz, nota yozuvi, ularning chozimi, turoqlanishi va boshqalarning qog'ozda—yozuvida, ekranda ifodalanishi kozida muhirlanadi va ko'rish hotirasiga kiradi:

v)turli harakatlarni eslab qolish va uni qaytarish (dirijorlik, pantamimo va x.k.) cholg'u asbobini tana sezgi organlari (lab, qol va barmoqlar, nafas orginlari harakati va x.k.) sezib eslab qolinishi sezgi harakat hotirasi:

g) esnash, kulish, yig'lash, lazzatlanish, tasirlanish, imotsiya tuyg'ularni eska olib o'zida aks ettirish. His hayajon hotirasi:

d) hikoya,roman, sher,maqol, topishmoq,va boshqa so'z mantiq hotirasi turlariga kiradi.

Hotirani yanada mustahkamlash uchun ustoz sozandalar (G.G Nigaus) tomonidan musiqa asarida yod olishda quyidagicha yol tutilishi oqtiriladi:

a)asarni nota bilan cholg'u asbobida chalib esta saqlashga harakat qilish:

b) notasiz cholg'uda yoddan chalish:

v) cholg'u asbobsiz notaga qarab korish orqali o'z hotirasida mustahkamlash:

g)notasiz va cholg'u asbobsiz hayoldan otqizish orqali musiqiy hotirani mustahkamlanadi.

Musiyqiy hotira mustahkam bolishi uchun nafaqat ahliy hotira ( quvvaiy hofiza) balki, "xalb hotirasi" zarurligini kopchilik olimlar takidlashadi.

**Usul sezgisi** musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo'lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o'z-aro o'lchov va ritmik bog'liqlik hamda mutonasiblikni ifodalaydi. Insonning yurak urushi, nafas olishi,qadam tashlashi hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatining barcha jihatlari bilan bog'liqdir.

**Rubato**— lotincha – o'g'irlangan, notalarningchozimimiqdorianiqsaqlanmaganiholdaijrochininghohishiboyichaengay tiribyokiqisqartiribijroqilish.

**Agogika** —lotincha–yurg'izish, ergashtirish. Musiqa ijrochiligidagi madeniyat ni ko'zlab asar sur'atini biroz ozgartirish yanitezlashtirish yoki sekinlashtirishni bildiradi.

**Torli cholg'ularda ijrochilik maxorati**:

a) ijrochi qollari texnikasi;

b) ijrochi nafasi texnikasi;

v) barmoqlar xarakati va ularni rivojlantiruvchi omillar kiradi;

**Gammalar chalish tamoyillari:**

a) gammalarning turlari diatonik, majo, minor, tabiiy, garmonik, melodic.xromatik. va butun tnlardan tuzilgani:

b) barcha gammalarning asosiy pardalaridan tuzilgan ush tovushliklari va ularning aylanmalari, D7 va uning aylanmalari, Kichraytirilgan yetakchi VII7 va uning aylanmalari hamda larning asosiy tonlikka yechilishi:

v) gamma chalishda cholg'u asbobining toliq tovush kolami (diapazoni) hamrab olinishi:

g) har qil ritmik korinishda, yani gamma ikki oktavali chalinsa kvrtollar bilan, ikki yarim yoki 3 oktava chalinsa triollar bilan shakllanadi.

**Arpedjiolar** ikki oktava oralig'ida triollar bilan ikki yarim oktava oralig'ida kvartonlar bilan, D7 va kich. VII7 lar ikki va uchoralig'ida kvartonlar (ikki yarim oktava oralig'ida chalinmaydi) bilan chalinadi.

Asosiy tonlik arpedjiosi aylanmalari triol yoki kvartol shaklida xam chalinadi.

D7 vaKich. VII7 lar esa kvartol shalida ijro etiladi:

d) gammalarni detashe, ligato, stakkato, marcato, portato, kabi turli shtrixlarda ifodalash:

e) f, p, sf, fp kabi har qil dinamik belgilar bilan chalish:

j) turli aplikaturani qollagan holda ijro etish bilan ijrochilik mahorati rivojlantiriladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar royhati:


1. Karimov I. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ». T., Ma'naviyat, 2008
2. I.A.Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, siyosat, mafkura. 1-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 367 bet.
3. I.A.Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar: 3 – jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 1997. – 62 - bet.
4. L.V.Rakov Kontrabas san'ati tarixi. – moskva 2004.
5. B.V.Dobroxotov kontrabas tarixi va uslubi. – moskva 1974
6. Y. Saydaliyev Kontrabas. – Toshkent 2015
7. A. Doljanskiy Qisqa musiqaviy lug'at. Moskva 1964
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 1998. – 48 bet.
9. Musiqa inseklopediyasi III tom -- moskva
10. Milliy inseklopediya – ("Davlat" T., 2004).
11. http://festival.1september.ru/articles/632726
12. http://www.musicfancy.net
13. http://www.musike.ru/classic.html
14. http://geniusrevive.com/ru/kompozitore-o-tvorchestve.html